

JADID MA'RIFATPARVARLARINING PEDAGOGIK FIKRLAR TARRAQQIYOTIDA
TUTGAN O'RNI.

(Hoji Muin misolida)

O'. Abdullaeva

TDPU, "Umumiyyat pedagogika" kafedrasini katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1116410>

Annotatsiya. Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik fikrlar taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, pedagogik qarashlari, qoldirgan me'rosi va ularning siyamolarini o'rganish har doim ham jamiyatning asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tarixdan ma'lumki jadidlar o'zlarining qarashlarida milliy tarbiyani, ma'rifatparvarlik goyalarini ilgari surib, millatni ilmsizlik jaholatidan qutqarish uchun eski maktabni isloh qilishni zarurligini isbotlab, usuli jadidiyaga asos soldi. Ushbu maqolada jadid ma'rifatparvarlarining yuqoridagi mazmunga oid bo'lgan qarashlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, ma'rifatparvarlik, usuli jadid maktabi, ma'naviyat, pedagogika, tushuncha, yangilik, yangi usul, ijtimoiy tarbiya, milliy uyg'onish, renessans, eski maktab.

**THE ROLE OF JADID ENLIGHTENERS IN THE DEVELOPMENT OF THE
HISTORY OF PEDAGOGY**
(On the example of Khoja Muin)

Abstract. The study of the contribution of modern enlighteners to the development of pedagogical thought, their pedagogical views, their heritage and their image has always been the main goal of society. Known from history, the Jadids put forward in their views the ideas of public education and enlightenment, substantiating the need to reform the old school in order to rid the nation of ignorance, and laid the foundations of the Jadid method. This article discusses the views of the Jadid enlighteners on the above content.

Keywords: Jadidism, Enlightenment, Jadid method school, Spirituality, Pedagogy, Concept, Innovation, New method, Social education, National awakening, Renaissance, Old school.

**РОЛЬ ДЖАДИДСКИХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ В РАЗВИТИИ ИСТОРИИ
ПЕДАГОГИКИ**

(На примере Ходжи Муина)

Аннотация. Изучение вклада современных просветителей в развитие педагогической мысли, их педагогических взглядов, их наследия и их имиджа всегда было главной целью общества. Известные из истории джадиды выдвинули в своих воззрениях идеи народного образования и просвещения, обосновав необходимость реформирования старой школы, чтобы избавить нацию от невежества, и заложили основы джадидского метода. В данной статье рассматриваются взгляды джадидских просветителей на вышеуказанное содержание.

Ключевые слова: Джадидизм, просвещение, джадидская школа метода, духовность, педагогика, концепция, инновации, новый метод, социальное образование, национальное пробуждение, ренессанс, старая школа.

Jamiyat o‘z oldiga qo‘ygan ulkan maqsadlarga erishish uchun eng avvolo barkamol shaxsni tarbiyalashga oid mukammal g‘oyalarga murojaat qiladi. Shuning uchun xam, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘zlarining har bir nutqida “Yangi O‘zbekiston”ni qurishda yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi muhim omil ekanligini alohida ta’kidlab ko‘rsatadi.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2023 yil so‘ngida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida davlatimiz rahbari soha vakillari va ziyolilar oldiga kechiktirib bo‘lmaydigan o‘ta jiddiy va dolzarb vazifalarni qo‘ydi. Ayniqsa, o‘tgan asr boshlarida millat kelajagi uchun qayg‘urgan, xalqning ma’rifatli, dunyoviy bilimlar egasi bo‘lishini orzu qilgan ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishini, xalqimiz jadidlar ko‘rsatgan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerakligini alohida ta’kidladi. Keyingi yillarda asrlar davomida jadidlar intilib kelgan ezgu g‘oyalar ro‘yobga chiqmoqda. Prezidentimiz “Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergen yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”, deganida ayni haqiqatni aytgan edi.

XIX asrning oxiri XX boshlarida yurtimiz Turkistonda ijtimoiy tarbiyaga oid o‘ziga xos jarayon kechdi. Bu jarayon jadid ma’rifatparvar pedagoglari tomonidan tashkil qilinib, u Yevropa va Rossiyada kechayotgan tajribalar asosida izchil va uzviy ravishda rivojlantirila bordi. Bu hol pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli: **birinchidan**, olimlarimiz istiqlol davrida shakllangan milliy tarbiyashunosligimizni jadid ma’rifatparvar pedagoglarining qarashlari bilan boyitish fikrini ma’qul topdilar; **ikkinchidan**, davlat siyosatida jadid ma’rifatparvarlarining o‘z davrida o‘ynagan roli e’tirof etildi. Bu ishlarda birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning da’vatlari asosiy yo‘naltiruvchi omil bo‘lib xizmat qildi. Birinchi Prezidentimiz jadid ma’rifatparvar pedagoglarimiz faoliyatiga shunday baho beradi:”XX asr boshidagi ma’rifatchilik haqida ko‘p gapirganmiz. O‘sha harakatning namoyondalari boylik uchun, shon-shuhrat uchun maydonga chiqishdimi? Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Fitrat, Tavallolarning maktab ochganiga, xalqni o‘z haq-huquqlarini tanishga da’vat etganiga birov maosh to‘laganmi?! Birov ularga oylik bergenmi?! Albatta, yo‘q! Ular o‘t bilan o‘ynashayotganlarini, istibdodga qarshi kurashayotganlari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilishgan. Bilaturib, ongli ravishda mana shu yo‘ldan borganlar. Chunki vijdonlari, iymonlari shunga da’vat etgan”. Jadid pedagoglari yoshlar tarbiyasi masalasiga hayot yoki mamot masalasi deb qaraganlar. Shu ma’noda, XX asr boshi bilan oxiridagi ma’rifiy-ma’naviy va ijtimoiy-siyosiy hayotda ham ajib bir o‘xshashlik va yaqinlikni tuyish mumkin.Jadidchilik harakatining tamal toshi usuli jadid maktablaridir. Bu - jadidshunoslar tomonidan yakdil e’tirof etilgan fikr. Bu harakatning asl maqsadi millatning o‘zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan isloq qilish, Millat, Vatan istiqlol edi. Ma’lumki, bunday buyuk o‘zgarishlarni yangi avlodgina amalga oshira oladi deb o‘ylashgan. Jadid ma’rifatparvarlarining o‘rganiishning yana muhim jihatni shundaki jadidlar olib borgan kurash oxiriga yetmagan bo‘lsa ham, milliy hukumat “Turkiston muxtoriyatini” qurishga erishildi. Hali millatning o‘zligini anglash, milliy uyg‘onish darajasining ilk rivojlanish bosqichida bo‘lib, bu davrda mustaqillik, istiqlol haqida ming xil va’dalar bergen bolsheviklar hukumati o‘ta qabih munofiqona siyosat olib borildi. Turkiston muxtoriyatini hali oyoqqa turib ulgurmasdanoq

qonga botirdilar. Shunday bo'lsa-da bu jadid mutafakkirlarining mustamlakadan mustaqillik sari qo'ygan birinchi dadil qadami bo'ldi.

Jadidchilik harakatining tamal toshi usuli jadid maktablaridir. Bu - jadidshunoslar tomonidan yakdil e'tirof etilgan fikr. Bu harakatning asl maqsadi millatning o'zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan isloh qilish, Millat, Vatan istiqlooli edi. Ma'lumki, bunday buyuk o'zgarishlarni yangi avlodgina amalga oshira oladi deb o'ylashgan. Jadid ma'rifatparvarlarini o'rganishning yana muhim jihatni shundaki jadidlar olib borgan kurash oxiriga yetmagan bo'lsa ham, milliy hukumat "Turkiston muxtoriyatini" qurishga erishildi. Hali millatning o'zligini anglash, milliy uyg'onish darajasining ilk rivojlanish bosqichida bo'lib, bu davrda mustaqillik, istiqlol haqida ming xil va'dalar bergen bolsheviklar hukumati o'ta qabih munofiqona siyosat olib borildi. Turkiston muxtoriyatini hali oyoqqa turib ulgurmasdanoq qonga botirdilar. Shunday bo'lsa-da bu jadid mutafakkirlarining mustamlakadan mustaqillik sari qo'ygan birinchi dadil qadami bo'ldi.

Ijtimoiy-ma'naviy hayotning barcha jabhalarini yangilashni ko'zda tutgan jadidchilik harakatining haqida, milliy uyg'onish davri haqida ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'qitiladi. Jumladan, o'rtta, o'rtta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida, umumiyl tushuncha berib boriladi.

Milliy uyg'onish davri Vatanimizda jadidchilik harakati shaklida namoyon bo'idi. U 1865-yildan boshlanib, 1929-yilda harakat namoyandalarini jismoniy tugatishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu harakatning yuzaga kelishi bevosita istilo va uning oqibatlari bilan bog'langan bo'lib, uning shakllanish davri 1865-1905-yillar bilan belgilanadi. Jadidchilik harakati namoyandalari "qora xalqni oqartirmaq va ko'zini ochmoq chorasiiga" (Avloniy) kirishdilar. Shu tariqa, milliy uyg'onish (jadidchilik) nihoyatda tez rivojlandi. Milliy uyg'onish (jadid adabiyoti) mazkur harakatlamning adabiy-badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ldi va yangi o'zbek adabiyotini ham boshlab berishga erishdi.

Bizga ma'lumki, jadidlar o'zlarining maqsadlarini amalga oshirish uchun maktablardan foydalanishgan. Bunday maktablar usuli jadid maktablari deb yuritilgan. Usuli jadid maktablarining vujudga kelishi bilan an'anaviy o'qitish usullarining tubdan isloh qilish, ta'lim olib borishning yangi usullarini ishlab chiqish, darslik va qo'llanmalar yaratish jadid pedagogikasining dolzarb masalasiga aylandi. O'qitishda ko'rgazmalik (Munavvar Qori), ifodali o'qish va uning turlari, ularda texnik vositalaridan foydalanish, nutq o'stirish usullari, (Behbudiy, Fitrat) "Tovush-harf" metodi orqali o'qitish, hijjalab o'rgatish, (Shakuriy) ijtimoiy tarbiya, maktabgacha ta'lim tizimini yangi usulda olib borish, isloq qilish(Xoji Muin) kabilar aynan jadid pedagoglari tomonidan ishlab chiqildi.

Mana shunday ta'lim tizimiga, maorifga yangiliklar kiritgan, ta'lim oluvchilarning har tomonlama o'sib ulg'ayishiga o'z hissasini qo'shgan ma'rifatparvar olimlardan biri Hoji Muinning ijtimoiy tarbiyaga oid qarashlari jadid ma'rifatparvarlarini o'rganishda muhim o'rinn tutadi.

Hoji Muin 1883-yil, 19-martda Samarqand shahrining Ruxobod mavzesida tug'ilgan. Eski maktabda savod chiqargan. Madrasada Saidahmad Vasliydan ta'lim olgan. Uning o'zi "Vasliy" nomli maqolasida ilk ustoziga shunday baho beradi: "Vasliy XX asr boshlarida maydonga otilib chiqib, usuli jadid maktablariga yordam va tarafdozlik eta boshlagan haqqoniyl olimlarimizdan biridir". [6;10-12b.] Vasliy Hoji Muinning diniy va dunyoviy ilmlar egasi bo'lib yetishishida katta

ta'sir ko'rsatdi. Hoji Muin boshqa jadid ma'rifatparvarlari qatori rus tilini, Evropa madaniyatini mustaqil o'zlashtirgan. 1901-yildan o'qituvchilik faoliyati boshlanadi. 1903 yili hatto Samarqandning Xo'ja Nisbatdor mahallasida o'z hisobidan yangi usuldagagi maktab ochdi. Ushbu maktab uchun 1908-yili "Rahnomai savod" nomli alifbo nashr ettirgan. 1913-yildan Behbudiyning "Samarqand" gazetasida va "Oyna" jurnalida ishlay boshlaydi. 1914-yili "Tarbiyat" nomi bilan o'z uyida xususiy "usuli jadid" maktabini ochgan.

1903 yili u Mahmudxo'ja Behbudiy bilan tanishdi va umrining oxirigacha unga munosib shogird bo'lib qoldi. 1909 yildan Abdurauf Fitrat bilan do'stlashib, hamkorlik qila boshladi. Hoji Muinning ijtimoiy faol va yetuk pedagog bo'lib yetishida ana shu uch shaxs - Vasliy, Behbudiy va Fitratlarning ta'siri katta bo'ldi.

Hoji Muin turkiy, fors-tojik, arab va rus tillarini mukammal bilar edi. Bu hol uning ijtimoiy pedagog sifatida voyaga yetishida muhim ro'l o'ynagan. U jadid ma'rifatparvarlari orasida ijtimoiy tarbiya to'g'risida eng ko'p fikr yuritgan pedagoglardan hisoblanadi. Uning fikricha, millatning baxti - ijtimoiy muammolarni hal etishdadir. Bu haqda shunday yozadi: "Dunyoda o'zining hayotini himoya qilmoqchi va o'z maishatini (turmush tarzini) ta'min etmoqchi bo'lg'on kishining tabiat qonunlari va hayot sharoitlari qanday tadbirlar ko'rarga va qanday choralar izlarga tutunmog'i qancha lozim bo'lsa, sarbastona va ma'sudona bir suratda yashajakchi bo'lg'on bir millatning hay'at majmuasi ham ijtimoiy hayotindagi vazifalarni bajarishga bog'liqdir". [6;38-39b.] Demak, bu fikrdan shunday xulosalar kelib chiqadi:

-alohida shaxsni ijtimoiy tarbiyalash bilan millatning (jamiyatning) ijtimoiy muammolarini hal qilish mumkin;

- shaxsni ijtimoiy tarbiyalash tabiat qonunlari va real ijtimoiy sharoitlarga asosan amalga oshiriladi;

- ijtimoiy tarbiya vositasi asosida shaxs mas'udona (baxtli) hayot kechirishga yo'naltiriladi.

Bunday qarash XX asr I- choragida jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega edi. Diqqat qilinsa, unda tarbiyaning dunyoviylik printsipiga amal qilish ilk rejaga qo'yilmoqda.

Hoji Muin ijtimoiy tarbiyada dunyoviylik printsipiga asoslanish masalasiga doir fikrida umrining oxirigacha qoldi. U nohaq ravishda "xalq dushmani" sifatida qamoqqa olinganida ham o'z fikridan qaytgan emas. Pedagogning asarlarini tahlil qilish shunday mulohazaga olib keladi: ijtimoiy tarbiya jamiyat rivoji uchun zaruratdir va u keng ko'lamda olib borilishi kerak.

Hoji Muin ehtiyoj darajasidagi ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish uchun quyidagilarga amal qilishni tavsiya qiladi:

1. Oilani isloh qilish. Bunda nikohning ixtiyoriligi va qonuniyligiga qat'iy rioxva qilish; to'y, nikoh va ta'ziya marosimlaridagi isrofgarchiliklarga chek qo'yish; oilada bola tarbiyasiga alohida e'tibor berish, faqatgina o'gil bolalar emas balki qizlar tarbiyasiga ham alohida ahamiyat berish muhimdir. O'zining oila tarbiyasiga oid qarashlarida kelgusida bizlardan mas'ud (baxtli) oilalar etishib chiqishi uchun ta'lim-tarbiya borasida xatoga yo'l qo'ymaslik, erkak va qizlarni ta'lim-tarbiyasiga bir xil mas'ul bo'lishimiz lozimligi haqida ta'kidlaydi.

2. Bolalar bog'chalari tashkil qilish. Bunda taraqqiyatparvarlik mamlakatlarda kuzatilganidek, turar joylarning eng yaxshi maskanlarini bolalar bog'chalariga aylantirish va ularda yuksak darajadagi tarbiyani yo'lga qo'yish katta ahamiyatga egadir.

3. Ta’lim maskanlarini kengaytirish. Buning uchun yangi usuldagi maktablarni ko’paytirish, xalq dorilfununlari ochish, qizlar maktablari tashkil qilish, ularga muslima muallimalar biriktirilib, o’qish-yozishdan tashqari qo’ll hunarları o’rgatishlari va hayotga tayyorlashlari lozimligi, turli kasb-hunar o’rgatuvchi o’quv kurslari tashkil etish, oldinlari biror bir kasbni o’rganish uchun shogirdlikka tushib vaqtini 10-15 yilini xo’jasining xizmatini qilib o’tkazish, qachonki ustozি ruxsat bergandagina alohida o’zi mustaqil usta bolishi mumkin edi. Bu esa yoshlarning anchagina vaqtி, umri o’tib ketishiga sabab bo’lar edi. Shung uchun kasb-hunar maktablarining ochilishi muhimligini alohida ta’kidlaydi. Shu bilan birga o’qituvchilar tayyorlashni yo’lga qo’yish maqsadga muvofiqdir. Chunki er yigitlar va xotin-qizlarga ta’lim-tarbiya berish uchun muallimlarni o’zini o’qitish, tayyorlash kerakligi alohida ta’kidlanadi.

4. Matbuotni kuchaytirish. Bunda kundalik gazeta, jarida (jurnal) va devoriy varaqalarni nashr etishga va ular vositasida “xalqning ko’zini ochish”ga e’tibor berish muhimdir. Albatta bunda jadidlarning alohida xizmatlari va ulushi lozimdir.

5. Davrning ilg’or kishilaridan ibrat olish. Bu borada pedagogimiz o’z davrining mashhur kishilari Behbudiy, Vasliy, Shokir Muxtoriy kabilarni namuna sifatida tasvirlab ko’rsatadi.

6. Ijtimoiy illatlarni isloh qilib borish. Bunda boylikka o’chlik, poraxo’rlik, tanballik, g’ofillik, xiyonatkorlik, bahillik kabi xulqiy illatlarni bartaraf qilishga e’tibor berish ahamiyat kasb etadi. Ma’lum bo’ladiki, Hoji Muin o’z davrida bugungi kunimizga hamohang bo’lgan qarashlarni ilgari surgandi. Shu tariqa u o’z davrida keng ko’lamli ijtimoiy tarbiyaning yo’lga qo’yilishini orzu qilgandi. Shunday qilib, Hoji Muin ijtimoiy tarbiya masalasida o’ziga xos qarashga ega edi. Bu qarash bugun ham o’z ahamiyatini yo’qotmaganligi bilan diqqatni tortadi. Negaki uning maqsadi odamlarni “ijtimoiy xastaliklardan xalos etish” edi.

Xulosa o’rnida shuni alohida ta’kidlash kerakki, jadidlar olib brogan siyosat o’z davrining jasoratlari qadamli edi. Garchi ularning qilgan jasoratlari shafqatsizlarcha bostirilgan bo’lsada, o’sha davr qatlami uchun ko’zini ochishga, ilm-ma’rifat yo’lida dadil qadam bosishga undadi.

Mana shunday ta’lim tizimiga, maorifga yangiliklar kiritgan, ta’lim oluvchilarning har tomonlama o’sib ulg’ayishiga o’z hissasini qo’shgan ma’rifatparvar olimlarni uziksiz ta’lim jarayonida o’rganish ya’ni maktabdagi fanlar kesimida (hozirda “Tarbiya” fani) o’rganilishi kerak deb hisoblayman. Shu bilan birga, o’rta maxsus ta’lim, akademik litseylarda, professional ta’lim tizimi va Oliy ta’lim bosqichlarida qator jadidchi olimlarni, ularning jasoratini, pedagogikaga qo’shgan hissasini, ularning yaratgan maktablari, qoldirgan merosi pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etishini qayta-qayta o’rgatishimiz, ular qalbida mana shunday jasoratli, qo’rqmas ajdodlarimiz xotirasini har doim hurmat bilan eslab yurishlarini, mana shunday zamonlarda yashayotganimizga shukronalar keltirishimiz kerakligini singdirib borishimiz kerak.

REFERENCES

- 1.I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch.-T. -2008.
2. Sh.M.Mirziyoyev. “Toshkent Islom sivilizatsiyasi markazi”da so’zlagan nutqi.
3. U. Dolimov.Milliy uyg’onish pedagogikasi.-T.-2014.
4. K.Hoshimov.S.Nishonova va boshqalar.Pedagogika tarixi. .T. -2008.
5. B.Qosimov va boshqalar. Milliy uyg’onish davri.-T.-2004.
6. Xoji Muin. Tanlangan asarlar.- T-2005.